

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ISHANKULOV IZZATILLA NURILLAYEVICH

AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI SOHASIDA
NOMODDIY AKTIVLAR HISOBİ VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation the abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on
economical sciences**

Ishankulov Izzatilla Nurillayevich

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida nomoddiy aktivlar hisobi
va auditini takomillashtirish.....3

Ишанкулов Иззатилла Нуриллаевич

Совершенствование учета и аудита нематериальных активов в сфере
информационно-коммуникационных технологий.....25

Ishankulov Izzatilla Nurillaevich

Improving accounting and auditing of intangible assets in the field of
information and communication technologies49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works54

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ISHANKULOV IZZATILLA NURILLAYEVICH

**AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI SOHASIDA
NOMODDIY AKTIVLAR HISOBI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan B2024.1.PhD/Iqt3814 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xajimuratov Nizomjon Shukurullayevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xolbekov Rasul Olimovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Aliqulov Abdimo'min Ismatovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

**Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot-texnologiyalari
universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi DSc.03/10.12.2019.I.16.01. raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "_____" soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72. Faks: (99871) 239-43-51. E-mail: tsue_info@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72. Faks: (99871) 239-43-51. E-mail: tsue_info@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "_____" kuni tarqatildi.
(2025-yil "_____" dagi _____-raqamli reyestr bayonnomasi).

S.U. Mexmonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, i.f.d., professor

U.V. Gafurov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash kotibi, i.f.d., professor

S.K. Xudoyqulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash huzuridagi ilmiy seminar
raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda bo'layotgan iqtisodiy o'zgarishlar biznes subyektlari faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Raqobatning rivojlanib borishi iqtisodiy subyektlarning o'z biznes faoliyatlarini saqlab qolib muvaffaqiyatga erishishlariga birmuncha qiyinchiliklar tug'dirib kelmoqda. Shu maqsadda biznes subyektlari yangi turdagi mahsulotlar va xizmatlarni taqdim etishlari va ularni yaratish uchun xarajatlari qilishlari lozim bo'ladi. "Dunyo statistika ma'lumotlariga ko'ra tadqiqot va ishlanma xarajatlar uchun eng ko'p xarajat qilgan mamlakat Avstriya mamlakati bo'lib, uning tadqiqot va ishlanma xarajatlari 2019-yilda yalpi ichki mahsulotga nisbatan 3,21%ni tashkil etgan"¹.

Bugungi kunda dunyo mamlakatlarining bir-biriga nisbatan olib borayaotgan siyosat natijalarida biznes vakillarini erkin faoliyatini birmuncha qiyinlashtirishiga qaramasdan tadbirkorlar tomonidan innovatsion faoliyatni rivojlantirish masalalariga katta e'tibor qaratib kelmoqdalar. Xususan, innovatsion faoliyatni muqobil yo'llar bilan moliyalashtirish, xarajatlarni to'g'ri aks ettirish, innovatsion faoliyat natijasida yaratilgan nomoddiy aktivlar qiymatini to'g'ri aniqlash va hisobini yuritishdagi muammoli jihatlari olib borilayotgan tadqiqot ishlarida ustuvor yo'nalishlar etib belgilangan.

O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlarning tub negizida insonlarni rozi qilish masalasi yotibdi. Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasining 22-maqsadida "Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish"² vazifalari belgilab berilgan. Mazkur vazifani bajarish uchun avvalambor ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirish hamda ularni hozirgi kundagi kuchli raqobat muhiti talablariga javob beradigan tartibda tashkil etish lozim. Kuchli raqobatni muhitida o'z o'rniga ega bo'lish uchun tadbirkorlar innovatsion faoliyatga katta e'tibor qaratib kelmoqliklari, yangi turdagi mahsulot turlari, nou-xaular yaratmoqliklari lozim bo'ladi. Bu maqsadlarga erishish uchun esa buxgalteriya hisobi tizimida nomoddiy aktivlar hisobini to'g'ri tashkil etish, tadqiqot va ishlanma xarajatlarini nomoddiy aktivlarni yaratish bilan bog'liq xarajatlarida mutanosibligini to'g'ri aniqlash va ularni hisobini to'g'ri yuritish uchun birlamchi hujjatlarni ishlab chiqish muhim o'ringa ega hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2015-yil 24-apreldagi PF-4720-son "Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari, 2018-yil 19-sentyabrdagi PQ-3946-son "O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorlari hamda Vazirlar

¹ www.worldstatistics.com

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni. 2022-yil 28-yanvar. – www.lex.uz

Mahkamasining 2022-yil 28-sentyabrdagi VM-538-son “Auditorlik tashkilotining ishi sifatini tashqi nazoratdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori va mazkur sohaga oid yana bir qator me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Nomoddiy aktivlar hisobi va auditi sohasida bir qator xorijlik iqtisodchi olimlar ilmiy-tadqiqotlar olib borishgan. Ular jumlasiga C.J.Coate, R.E.Florence, K.L.Kral, E.A.Arens, Dj.K.Lobbek, A.Farajzadeh, T.Azizzadeh, K.A.Houghton, C.Jubb, M.Kend, P.Nikolovskiy, B.Aceski, B.Traykoski, K.H.Spenser Pikett, T.R.Ismagilova, Stephen Kwaku Asare, M.Arnold Wright, Robert W.Holthausen, Ross L.Watts, Eli Bartov, Dan Givoly, Carla Hayn, John (Xuefeng) Jiang³ kabilarni kiritish mumkin. Respublikamiz iqtisodchi olimlari tomonidan yaratilayotgan darslik, monografiya va o‘quv qo‘llanmalar, shuningdek chop etilayotgan ilmiy maqola va tezislarda auditorlik nomoddiy aktivlar hisobi va auditini nazariy muammolari o‘rganilgan. Xususan, R.D.Do‘smuratov, M.E.Po‘latov, N.K.Rizayev, A.S.Sotvoldiyev, B.I.Isroilov, I.K.Ochilov, J.Qurbonboyev, R.M.Raximbekov, F.G‘.G‘ulomova, I.I.Ismanov, Sh.I.Ilxamov, I.R.Davletov, A.A.Xudoyqulov va boshqa olimlarning o‘z asarlarida nomoddiy aktivlar hisobi va auditining nazariy hamda uslubiy jihatlarini takomillashtirish muammolari o‘rganilgan⁴.

³ Шохин С.О., Воронина Л. Н. Бюджетно-финансовый контроль и аудит. Теория и практика применения в России: научно-методическое пособие. М.: Финансы и статистика, 1997/ Воронин Ю. М. Государственный финансовый контроль. М.: Финансовый контроль, 2005 Рябухин С. Н. Аудит эффективности использования государственных ресурсов: монография. М.: Наука, 2004/ Coate, C.J., Florence, R.E., Kral, K.L., 2002. Financial Statement Audits, a Game of Chicken, Journal of Business Ethics/ Farajzadeh, A., Azizzadeh, T., Comparing Active Auditors viewpoints in Public and Private Sector over Determining Basic Materiality Levels in Auditing, Journal of Global Economy/ Arens E.A., Lobbek Dj.K. Audit.M.: Finansi i statistika / Houghton, K.A., Jubb, C., Kend, M., 2011. Materiality in the context of audit: the real expectations gap, Managerial Auditing Journal/ P. Nikolovskiy. Auditni tashkil etish. Prilep: Iqtisodiyot fakulteti/ B. Aceski, B. Traykoski. Ichki va tashqi audit. Prilep: Iqtisodiyot fakulteti, 2004 / K.H Spenser Pikett. Auditni rejalashtirish: riskga asoslangan yondashuv, Nyu-Jersi: Wiley, 2006/ Stephen Kwaku Asare;Arnold M. Wright. Investors‘, Auditors‘, and Lenders‘ Understanding of the Message Conveyed by the Standard Audit Report on the Financial Statements. Accounting Horizons (2012) 26 (2)/ Robert W. Holthausen, Ross L. Watts. The relevance of the value-relevance literature for financial accounting standard setting. Journal of Accounting and Economics Volume 31, Issues 1–3, September 2001/ Eli Bartov, Dan Givoly, Carla Hayn. The rewards to meeting or beating earnings expectations. Journal of Accounting and Economics Volume 33, Issue 2, June 2002/ John (Xuefeng) Jiang. Beating Earnings Benchmarks and the Cost of Debt. The Accounting Review (2008) 83 (2)

⁴ Dusruratov R.D. Audit asoslari. Darslik. –T.: O‘ME, 2003. -612 b; Po‘latov M.E. “Intellectual kapital hisobi va auditi metodologiyasini takomillashtirish”, 08.00.08 – “Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit” , i.f.d. (DSc) ilmiy darajasini olish uchun diss. 2017-y; Rizayev N.K. Nomoddiy aktivlarning buxgalteriya hisobi va moliyaviy tahlilini takomillashtirish. i.f.n. ilmiy daraja olish uchun yozilgan diss. T-2004-yil. Rizayev N.K. Intellectual mulk obyektlari hisobi va tahlilini tashkil etish metodologiyasi. I.f.d. (DSc) darajasini olish uchun yozilgan disss. T-2019-y Ochilov I. Qurbonboyev J. “Moliyaviy hisob”./O‘quv qo‘llanma. –T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2007. 265-b; Sotivoldiyev A.S. “Zamonaviy buxgalteriya hisobi”. /O‘quv qo‘llanma. –T.: BAMA-2007. 2-tom; Рахимбекова Р.М. «Финансовый учет на предприятии». Алматы. «Экономика». 2003. 94 с; Isroilov B.I. “Solliqlar hisobi va tahlili: muammo va ularning yechimlari”. –T.: “O‘zbekiston”-2006. 92; Ismanov I.I. Uzoq muddatli aktivlarning buxgalteriya hisobi va auditi metodologiyasini takomillashtirish. i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. 2009 37 b; G‘ulomova F.G‘. “Buxgalteriya hisobi bo‘yicha mustaqil o‘rganish uchun uchun qo‘llanma”. –T.: “Iqtisodiyot

Yuqorida qayd etilgan iqtisodchi olimlarning ilmiy asarlarida aynan Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida nomoddiy aktivlar hisobi va auditini takomillashtirish alohida tadqiqot obyekti qilib olinmagan, amaldagi me'yoriy hujjatlarning iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitiga muvofiq o'zgarib borishini hisobga olgan holda mukammal o'rganilmagan.

Mamlakatimiz va xorijiy olimlar tomonidan moliyaviy nazoarat hamda auditi sohasida sezilarli ishlar amalga oshirilgan biroq moliyaviy audit sohasi, undagi muammolarini dolzarbligi yuzasidan alohida tadqiqotlar olib borilmaganligi, iqtisodiy adabiyotlarda yetarli darajada tadqiq qilinmaganligi bu sohada chuqur ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya **tadqiqoti** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq FM-6-sonli «O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil, audit va statistika sohalari taraqqiyotining konseptual yo'nalishi» mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida nomoddiy aktivlar hisobi va auditini takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

- nomoddiy aktivlar tushunchasini mazmun-mohiyatini to'laroq yoritish;
- xo'jalik yurituvchi subyektlarini o'zida yaratgan nomoddiy aktivlari va ularni hisobini yuritish o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish hamda tavsiyalar ishlab chiqish;
- nomoddiy aktivlarni hisobini yuritish bilan bog'liq birlamchi buxgalteriya hujjatlarini takomillashtirish;
- tadqiqot va ishlanma xarajatlarini hisobini yuritish bilan bog'liq jarayonlarini to'g'ri tashkil etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;
- moliyaviy hisobotlar auditida nomoddiy aktivlarni tekshirish bilan bog'liq jarayonlarni to'g'ri tashkil etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;
- nomoddiy aktivlar hisobini tekshirishda auditorlik dalillaridan foydalanishning uslubiy jihatlarini ochib berish va ularning maqsadga muvofiqligini asoslash.

Tadqiqotning obyekti sifatida "O'zbekiston pochta" AJ, "O'zbektelekom" AJ va uning tarkibidagi tashkilotlarning nomoddiy aktivlari hisobi va auditi bilan bog'liq bo'lgan jarayonlari tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida nomoddiy aktivlar hisobi va auditining nazariy, amaliy hamda uslubiy asoslarini ishlab chiqish va rivojlantirish jarayonida sodir bo'ladigan iqtisodiy munosabatlar majmuyidan iborat.

va huquq dunyosi" nashriyot uyi, 2000. 229 b; Ilxamov Sh.I. "Investitsiya faoliyatida buxgalteriya hisobi va audit", iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun diss. avtoreferati, 2005-y. 24 b; Davletov I.R. Agrar sohada intellektual mulk obyektlarining buxgalteriya hisobi va auditini takomillashtirish, falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun diss avt, 2018. – 48 b; Xudoyqulov A. Nomoddiy aktivlar hisobi va auditini takomillashtirish. Iqt. Fan bo'yicha falsafa (PhD) diss. Avtoreferati-2023, 35 b.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida ilmiy abstraksiyalash, induksiya va deduksiya, tahlil va sintez, hujjatlashtirish, baholash, ikki yoqlama yozuv, iqtisodiy tahlil va statistik usullardan keng foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida faoliyat olib boruvchi tashkilotlar hisob siyosatiga 0831 – “Yangi turdagi mahsulot yaratish bilan bog’liq ishlanma xarajatlar” va 9431 – “Yangi turdagi mahsulot yaratish bilan bog’liq tadqiqot xarajatlar” ishchi schyotlarni kiritish taklif etilgan;

- tadqiqot xarajatlarining samaradorligini baholashda “Tadqiqot xarajatlari”, “Tadqiqot xarajatlarining samaradorlik koeffitsiyentini” ko’rsatkichlarini kiritish asosida ichki audit faoliyati samaradorligini oshirish asoslangan;

- moliyaviy hisobot elementlarini oshirib yoki kamaytirib ko’rsatilganligini tekshirish tahliliy amallarini kiritish asosida nomoddiy aktivlar bo’yicha moliyaviy hisobot auditi takomillashtirilgan;

- axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida faoliyat olib boruvchi tashkilotlar hisob siyosatiga “Tadqiqot xarajatlarini byudjetlashtirish” hamda “Ishlanma xarajatlarini byudjetlashtirish” hisob registrilarini kiritish taklif etilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

- tadqiqot va ishlanmalar (R&D) xarajatlari kompaniyaning raqobatdosh ustunlikka ega bo’lish va yangi mijozlarni jalb qilish uchun yangi mahsulotlarni ishlab chiqish yoki mavjudlarini takomillashtirishga sarflagan xarajatlarini anglatadi. R&D kompaniyalarga o’z bizneslarini diversifikatsiya qilish, rivojlantirgan texnologiyalar yordamida o’sish imkoniyatlarini o’rganish va uzoq muddatli rentabellik uchun takliflarini yangilash imkonini beradi;

- auditorlar tomonidan nomoddiy aktivlar hisobini tekshirishda dastlabki amalga oshiriladigan amallar ketma-ketligi quyidagicha, ya’ni mijoz korxonada mavjud nomoddiy aktivlar hisobi xususiyatini o’rganish, u bo’yicha tahliliy amallar qo’llash orqali riskni baholash, dalillar to’plash va xulosalarni shakllantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi;

- axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida faoliyat olib boruvchi tashkilotlar buxgalteriya hisob hujjatlar tizimida dastlabki birlamchi buxgalteriya hisobi hujjatlar turlarini kengaytirish nomoddiy aktivlar hisobini paydo qilishda amalga oshiriladigan tadqiqot va ishlanma xarajatlarini moliyalashtirish va qilingan xarajatlar hisobini to’g’ri yuritishni tashkil etish bilan bog’liq bo’lgan jarayonlarni qayd etish orqali hisob registrilarini takomillashtirishga xizmat qiladi;

- buxgalter kapitallashtirilgan xarajatlarning har birini olib, ularni tegishli hisobot davri uchun aktivlar sifatida balansga qayd etish chorlari ko’riladi va buxgalteriya registrilarida har bir aktivga o’z qatori bo’yicha hisobga olinadi. Agar buxgalter tomonidan katta miqdordagi kapitallashtirilgan aktivlar mavjudligi aniqlansa, buxgalteriya hisobida tadqiqot va ishlanmalar uchun alohida bo’lim yaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi unda qo’llanilgan uslubiy yondashuv va usullarning umuman olinganligi va maqsadga muvofiqligi, me’yoriy-huquqiy hujjatlar, foydalanilgan adabiyotlar va internet ma’lumotlari rasmiyligi, byudjet tashkilotlarga oid ma’lumotlarning hisobot

manbalaridan olinganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning me'yoriy-huquqiy hujjatlar hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida nomoddiy aktivlar hisobi va auditini o'tkazishni takomillashtirishda foydalanishga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ilgari surilgan ilmiy-uslubiy tavsifdagi taklif va xulosalardan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida nomoddiy aktivlar hisobi va auditini o'tkazishni takomillashtirish borasida nazariy muammolarning yechimini hal qilishda, buxgalteriya hisobi va audit fanlarining istiqbolli yo'nalishlarini rivojlantirishda nazariy-uslubiy asos sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati unda ilgari surilgan amaliy tavsifdagi taklif va xulosalardan byudjet tashkilotlarida moliyaviy auditni tashkil etish va o'tkazishda, buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit bo'yicha mutaxassislarni o'qitish, attestatsiyadan o'tkazish va malakasini oshirish tizimida, shuningdek, oliy o'quv yurtlarida "Audit" "Audit va tegishli xizmatlar", "Buxgalteriya hisobi" hamda "Moliyaviy hisob va hisobot" kabi fanlarni o'qitish jarayonida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida nomoddiy aktivlar hisobi va auditini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar asosida:

axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida faoliyat olib boruvchi tashkilotlar hisob siyosatiga 0831 – "Yangi turdagi mahsulot yaratish bilan bog'liq ishlanma xarajatlar" va 9431 – "Yangi turdagi mahsulot yaratish bilan bog'liq tadqiqot xarajatlar" ishchi schyotlarni kiritish bo'yicha taklifi "O'zbekiston pochtasi" aksiyadorlik jamiyati hamda "O'zbektelekom" aksiyadorlik kompaniyasi tomonidan joriy etilgan ("O'zbekiston pochtasi" aksiyadorlik jamiyatining 2024-yil 14-oktyabrdagi 08/102-sonli hamda "O'zbektelekom" aksiyadorlik kompaniyasining 2025-yil 9-apreldagi 27-03-35/1661-sonli ma'lumotnomalari). Mazkur taklifni hisob siyosatiga joriy etilishi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida faoliyat olib boruvchi tashkilotlarda ilmiy-tadqiqot ishlarida yuzaga kelayotgan xarajatlar hisobini to'g'ri tashkil etish, foydalanuvchilarni ishonchli ma'lumotlar bilan ta'minlashga xizmat qilgan;

tadqiqot xarajatlarining samaradorligini baholashda "Tadqiqot xarajatlari", "Tadqiqot xarajatlarining samaradorlik koeffitsiyenti" ko'rsatkichlarini kiritish asosida ichki audit faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha taklifi "O'zbekiston pochtasi" aksiyadorlik jamiyati hamda "O'zbektelekom" aksiyadorlik kompaniyasi tomonidan tegishli buyruqlari asosida joriy etilgan ("O'zbekiston pochtasi" aksiyadorlik jamiyatining 2024-yil 14-oktyabrdagi 08/102-sonli hamda "O'zbektelekom" aksiyadorlik kompaniyasining 2025-yil 9-apreldagi 27-03-35/1661-sonli ma'lumotnomalari). Mazkur taklifni amaliyotga joriy etilishi orqali ichki audit jarayonlarida olib borilayotgan tadqiqot ishlarini samaradorligini to'g'ri baholash va optimal moliyalashtirish qarorlarni qabul qilishga erishilgan;

moliyaviy hisobot elementlarini oshirib yoki kamaytirib ko'rsatilganligini tekshirish tahliliy amallarini kiritish asosida nomoddiy aktivlar bo'yicha moliyaviy

hisobot auditini takomillashtirish bo'yicha taklifi "O'zbekiston pochta" aksiyadorlik jamiyati hamda "O'zbektelekom" aksiyadorlik kompaniyasi tomonidan tegishli buyruqlari asosida joriy etilgan ("O'zbekiston pochta" aksiyadorlik jamiyatining 2024-yil 14-oktyabrdagi 08/102-sonli hamda "O'zbektelekom" aksiyadorlik kompaniyasining 2025-yil 9-apreldagi 27-03-35/1661-sonli ma'lumotnomalari). Mazkur taklifning amaliyotga joriy qilinishi orqali moliyaviy hisobot auditida nomoddiy aktivlarning hisobi ko'rsatkichlarini to'g'ri va haqqoniy aks ettirilganligini aniqlashga hamda foydalanuvchilar manfaatlariga mos bo'lgan auditorlik xulosasi shakllantirilishiga erishilgan;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida faoliyat olib boruvchi tashkilotlar hisob siyosatiga "Tadqiqot xarajatlarini byudjetlashtirish" hamda "Ishlanma xarajatlarini byudjetlashtirish" hisob registrlarini kiritish taklifi bo'yicha taklifi "O'zbekiston pochta" aksiyadorlik jamiyati hamda "O'zbektelekom" aksiyadorlik kompaniyasi tomonidan joriy etilgan ("O'zbekiston pochta" aksiyadorlik jamiyatining 2024-yil 14-oktyabrdagi 08/102-sonli hamda "O'zbektelekom" aksiyadorlik kompaniyasining 2025-yil 9-apreldagi 27-03-35/1661-sonli ma'lumotnomalari). Mazkur taklifni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida faoliyat olib boruvchi tashkilotlar hisob siyosatiga joriy etilishi tadqiqot va ishlanma xarajatlari bo'yicha aniq hamda batafsil analitik ma'lumotlar shakllanishiga va bu orqali samarali byudjetlashtirish qarorlarini qabul qilishga ko'maklashgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta, jumladan 2 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan hama ijobiy xulosalar olingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 7 ta shundan nufuzli xorijiy jurnallarda 4 ta ilmiy maqola nashr ettirilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 110 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan; respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatib o'tilgan; muammoning o'rganilganlik darajasi va dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi bayon etilgan; tadqiqotning maqsadi va vazifalari hamda obyekti, predmeti va usullari berilgan; tadqiqotning ilmiy yangiligi hamda amaliy natijalari yoritilgan; tadqiqot natijalarining ishonchliligi va joriy qilinishi izohlab berilgan; tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Nomoddiy aktivlar tushunchasi va uning iqtisodiy mazmuni-mohiyati**" deb nomlangan birinchi nomoddiy aktivlarning iqtisodiy mazmun-mohiyati va unga oid yondashuvlar, nomoddiy aktivlar hamda ularni tan olishning o'ziga xos xususiyatlari, tadqiqot va ishlanma xarajatlari hisobini yuritishning o'ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan.

Nomoddiy aktivlar bu buxgalteriya balansining muhim elementlaridan biri bo'lib, xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan o'z biznes faoliyatini amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar biznes faoliyatida asosiy vositalar va boshqa turdagi aktivlar qanchalik kerak va muhim bo'lganligi kabi nomodiy aktivlar biznes faoliyati shunaqa darajada muhim hisoblanadi. Ba'zi bir faoliyatda nomoddiy aktivlarsiz faoliyat yuritish qat'iyon man etiladi.

Nomoddiy aktivlar va ularning iqtisodiy mazmun mohiyati va hisobini tashkil etish yo'llari to'g'risida bir qancha mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan va hozirgi kungacha mazkur jarayon davom etib kelmoqda.

Xususan, "Nomoddiy aktivlar" nomli BHMSning 7-bandiga muvofiq "nomoddiy aktivlar – moddiy-ashyoviy shaklga ega bo'lmagan, xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan, xo'jalik faoliyatida foydalanish maqsadida nazorat qilinadigan, shuningdek, uzoq vaqt (bir yildan ko'p) ishlatish uchun mo'ljallangan mol-mulk obyektlari. Shuningdek, nomoddiy aktivlar quyidagi talablarga javob berganida aktiv deb olinadi: aktiv ta'rifini qondiradigan; o'lchanadigan; ahamiyatga molik bo'lgan; ishonchli bo'lgan; kelgusida iqtisodiy naf keltiradigan; ajratiladigan, ya'ni uni ishlatiladigan ishlab chiqarishdan alohida foydalanish mumkin bo'lgan hollarda."⁵

"Nomoddiy aktivlar" nomli 38-son buxgalteriya hisobining xalqaro standartida quyidagicha ifodalangan, ya'ni "nomoddiy aktivlar pul (qiymat) ko'rinishga, material-buyum ko'rinishiga ega bo'lmagan, ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatishda qatnashuvchi, ijaraga berish mumkin bo'lgan va boshqaruv maqsadlarida foydalanuvchi aktivlardir"⁶.

Nomoddiy aktivlar ta'rifiga nafaqat xorijiy olimlar, balki respublikamizdagi qator iqtisodchi olimlar xam o'z yondoshuvlari va fikrlarini berib o'tganlar, jumladan Iqtisodchi olim R.Dusmuratov tomonidan nomoddiy aktivlar sifatida ularni hisobga olish va audit o'tkazish uslubiyoti shakllantirgan⁷.

I.Ochilovning fikriga ko'ra, "Intellektual mulklar nomoddiy aktivlarning tarkibi bo'lib, xo'jalik faoliyatida uzoq vaqt mobaynida foydalanish uchun mo'ljallangan moddiy xususiyatga ega bo'lmagan mol-mulk obyektlaridir"⁸.

A.Sotivoldiyev esa nomoddiy aktivlarni ushlab bo'lmaydigan va sezib bo'lmaydigan korxonaning aktivlari sifatida ta'riflaydi⁹.

R.Raximbekovanning fikriga ko'ra, nomoddiy aktivlar jismoniy ko'rinishga ega bo'lmagan va kelgusida daromad keltiruvchi aktivlardir¹⁰.

B.Isroilov nomoddiy aktivlar mol-mulk solig'i obyektlarini turkumlashda ko'char mulk tarkibiga kiritadi. Uning fikriga ko'ra, bozor munosabatlari sharoitida insonning intellektual mehnati natijasi, ya'ni nomoddiy nematlar ham mulk sifatida tan olinadi¹¹.

⁶ "Nomoddiy aktivlar" nomli 38-son BHXS.

⁷ Dusmuratov R.D. Audit asoslari. Darslik. –T.: O'ME, 2003. 612 b.

⁸ Ochilov I. Qurbonboyev J. "Moliyaviy hisob"/O'quv qo'llanma. –T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2007, 265-b.

⁹ Sotivoldiyev A.S. "Zamonaviy buxgalteriya hisobi". /O'quv qo'llanma. –T.: BAMA-2007, 2-tom.

¹⁰ Рахимбекова Р.М. «Финансовый учет на предприятии». Алматы. «Экономика». 2003. 94 с.

¹¹ Isroilov B.I. "Soliqlar hisobi va tahlili: muammo va ularning yechimlari". –T.: "O'zbekiston". 2006, 92.

Sh.Ilxamov nomoddiy aktivlar qiymatini eng kam ish haqining ellik barobaridan va xizmat davri bir yildan ko'p bo'lgan patent, litsenziya, nou-xau, savdo markalari, tovar belgilari, sanoat namunalari, dasturiy ta'minot, yerdan va tabiiy resurslardan foydalanish xuquqi, tashkiliy xarajatlar, franchayz, mualliflik huquqlari va boshqa aktivlar kiritilishi lozimligini ko'rsatib beradi¹².

F.G'ulomova quyidagi tushunchani ta'kidlab o'tadi: "Nomoddiy aktivlar tabiiy-moddiy ko'rinishga ega bo'lmagan va qo'shimcha daromad keltirish imkoniyatini yaratuvchi obyektlar kiradi"¹³.

I.Ismanov tomonidan olib borilgan tadqiqotda nomoddiy aktivlar obyektlarini tan olish va buxgalteriya hisobida aks ettirishning ayrim xususiyatlari hamda xalqaro standartlarga transformatsiya qilish masalalari ko'rib chiqilgan¹⁴.

M.Po'latov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda aynan nomoddiy aktiv emas, balki, ularni intellektual kapital tarkibi sifatida o'rganadi¹⁵.

I.Davletov agrar sohada nomoddiy aktivlarni intellektual mulk obyektlari sifatida tadqiqi etgan va ularni hisobga olish hamda auditi masalalarini yoritgan¹⁶.

M.Pardayevning ilmiy asarlari va yaratilgan darsliklarida nomoddiy aktivlar tahlilining modellari hamda ko'rsatkichlar tizimi shakllantirilgan¹⁷.

N.K.Rizayev esa avtomobilsozlik sohasidagi nomoddiy aktivlar hisobi va tahlilini o'rgangan, shuningdek, doktorlik dissertatsiyasida esa nomoddiy aktivlarning tarkibiga kiruvchi intellektual mulk obyektlar hisobi va tahlili metodologiyasini tadqiq etgan¹⁸.

Nomoddiy aktivlarni hisobga olishning asosiy qoidalari bo'lib tan olish (e'tirof etish) paytini belgilash, balans qiymati va foydali xizmat muddatini baholash, amortizatsiyani hisoblash usullarini belgilash, balans qiymatidagi boshqa o'zgarishlarni baholash va hisobga olish hamda ularning chiqib ketishidan moliyaviy natijalarni aniqlash, shuningdek, ular bo'yicha axborotni moliyaviy hisobotda ochib berish tartibi hisoblanadi"¹⁹.

Iqtisodchi olim N.Toshmamatov nomoddiy aktivlarga quyidagicha ta'rif berilgan, ya'ni "Nomoddiy aktivlar – korxonaning huquqlari, korxona uchun qiymatga ega bo'lgan, lekin ko'rib yoki ushlab bo'lmaydigan kapital qo'yilmalarning proyektleri, savdo markalari, patentlari hamda shu kabi boshqa huquqlari"²⁰.

¹² Ilxamov Sh.I. "Investitsiya faoliyatida buxgalteriya hisobi va audit", iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun diss. avtoreferati, 2005-y. 24 b.

¹³ G'ulomova F.G'. "Buxgalteriya hisobi bo'yicha mustaqil o'rganish uchun qo'llanma". T.: "Iqtisodiyot va huquq dunyosi" nashriyot uyi, 2000. 229 b.

¹⁴ Ismanov I.I. Uzoq muddatli aktivlarning buxgalteriya hisobi va auditi metodologiyasini takomillashtirish. i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. 2009, 37 b.

¹⁵ Po'latov M.E. "Intellektual kapital hisobi va auditi metodologiyasini takomillashtirish", 08.00.08 – "Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit", i.f.d. (DSc) ilmiy darajasini olish uchun diss. 2017-y.

¹⁶ Davletov I.R. Agrar sohada intellektual mulk obyektlarining buxgalteriya hisobi va auditini takomillashtirish, falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun diss avt, 2018, 48 b.

¹⁷ Pardayev M.Q., Isroilov B.I. Moliyaviy tahlil. –T: "Iqtisodiyot va huquq dunyosi", 1999. 368 b.

¹⁸ Rizayev N.K. Nomoddiy aktivlarning buxgalteriya hisobi va moliyaviy tahlilini takomillashtirish. i.f.n. ilmiy daraj olish uchun yozilgan diss. T-2004-yil. Rizayev N.K. Intellektual mulk obyektlari hisobi va tahlilini tashkil etish metodologiyasi. I.f.d. (DSc) darajasini olish uchun yozilgan disss. –T.: 2019-y.

¹⁹ G.Q.Turayeva B.E.Matrasulov S.I.Matkuliyeva A.A.Abduvohidov A.B.Muxametov. "Buxgalteriya hisobi" darslik. –Toshkent: 2023.

²⁰ N.Toshmamatov. "Buxgalteriya hisobi nazariyasi" darslik. –Toshkent: 2019.

Yuqorida qayd etib o'tilgan ta'riflardan kelib chiqqan holda nomoddiy aktivlarga o'z mualliflik ta'rifimizni berib o'tmoqchimiz, ya'ni "Nomoddiy aktivlar bu moddiylik xususiyatiga ega bo'lmagan kelgusida xo'jalik yurituvchi subyektga naf keltiradigan qiymatliklardir."²¹

Xulosa o'rnida shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, nomoddiy aktivlar naflilik jihatidan asosiy vositalaridan kam bo'lmagan qiymatliklar bo'lib ba'zi tadbirkorlik faoliyatida muhim o'rin kasb etadi.

Quyida keltirilgan jadvalda tadqiqotimiz obyekti hisoblanadigan Raqamli texnologiyalar vazirligi tarkibidagi "O'zbekiston pochta" aksiyadorlik jamiyati aktivlarining tarkibiy qismlari keltirib o'tilgan.

1-jadval

"O'zbekiston pochta" AJning 2019–2023-yillar kesimida aktivlar tarkibi (mln so'mda)²²

Ko'rsatkichlar	2019-yil	%	2020-yil	%	2021-yil	%	2022-yil	%	2023-yil	%
Uzoq muddatli aktivlar:	25.223,0	20	37.731,0	20	77.799,0	24	95.255,0	37	101.496,0	33
Asosiy vositlar	961,0	1	33.564,0	17	65.633,0	20	78.746,0	30	86.183,0	28
Nomoddiy aktivlar	20,6	0	13,0	0	6,0	0	4,0	0	4.864,0	2
Boshqa turdagi uzoq muddatli aktivlar	24.215,4	19	4.154,0	2	12.160,0	4	16.505,0	6	10.449,0	3
Joriy aktivlar:	103.962,0	80	155.430,0	80	250.256,0	76	165.654,0	63	202.206,0	67
Pul mablag'lari	21.423,0	17	60.990,0	32	92.901,0	28	24.184,0	9	29.854,0	10
Debitorlik qarzlari	80.545,0	62	76.407,0	40	107.956,0	33	98.329,0	38	142.742,0	47
Tovar-moddiy zaxiralari	1.994,0	2	15.251,0	8	47.316,0	14	39.380,0	15	27.564,0	9
Boshqa turdagi joriy aktivlar	4,0	0	2.782,0	1	2.084,0	1	3.761,0	1	2.047,0	1
Jami aktivlar	129.189,0	100	193.161,0	100	328.056,0	100	260.909,0	100	303.703,0	100

Yuqoridagi jadvaldan shunday xulosa qilishimiz mumkin bo'ladiki, mazkur xo'jalik yurituvchi subyektda nomoddiy aktivlar qiymati sezilarli darajada past bo'lsa-da, biroq mazkur xo'jalik yurituvchi subyektning biznes faoliyati bevosita nomoddiy aktivlar bog'liq hisoblanadi.

Mamlakatimiz buxgalteriya hisobi tizimida asosan nomoddiy aktivlarni hisobini tashkil etish avvalambor ularni sotib olish bilan boshqa bir xo'jalik yurituvchi subyektlardan sotib olish yoki foydalanish yuzasidan ma'lum bir huquqni sotib olish natijasida yuzaga keladi.

Shunday bir turdagi nomoddiy aktivlar borki, ular korxona va tashkilotlar tomonidan yaratiladi. Mazkur turdagi nomoddiy aktivlarning yaratilishi va hisobini yuritilishi o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Nomoddiy aktivlarning yaratilishi tadqiqot va ishlanma xarajatlari asosida amalga oshiriladi.


²¹ Mualliflik ta'rifi.

²² "O'zbekiston pochta" AJ moliyaviy hisobotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida nomoddiy aktivlar hisobini tashkil etishni takomillashtirish**” deb nomlanib, unda buxgalteriya hisobi tizimida nomoddiy aktivlar hisobini yuritishning maqsad va vazifalari, nomoddiy aktivlar hisobini yuritish bo‘yicha hujjatlashtirish jarayonlarini takomillashtirish, tadqiqot xarajatlarining samaradorligini baholash masalalari tadqiq qilingan.

Tadqiqot obyekti bo‘lgan “O‘zbekiston pochta” aksiyadorlik jamiyatining buxgalteriya hisobi tizimida nomoddiy aktivlarni hisobini yuritish o‘rganishda quyidagilar ma’lum bo‘ldi:

Jamiyat tomonidan xarid qilingan nomoddiy aktivlar quyidagi keltirib o‘tilgan buxgalteriya o‘tkazmasi orqali hisobga olinadi, ya’ni:



1-rasm. “O‘zbekiston pochta”AJ tomonidan nomoddiy aktivlarni kirim qilish bilan bog‘liq buxgalteriya o‘tkazmasi²³.

Jamiytning moliyaviy hisobot ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yil 1-yanvar holatiga nomoddiy aktivlarning boshlang‘ich qiymati 476.012 ming so‘mni tashkil etgan.

2023-yil yakuniga ko‘ra nomoddiy aktivlarning boshlang‘ich qiymati o‘rishni qayd etib 6.194.775 ming so‘mni tashkil etdi, bu Markaziy apparat balansiga “Pochta aloqasi xizmatlarini avtomatlashtirish bo‘yicha dasturiy ta’minot kompleksini yaratish” dasturiy mahsuloti qabul qilinishi hisobiga bo‘lib, uning dastlabki qiymati 5 718 763 200 so‘mni tashkil etgan.

Nomoddiy aktivlarning yil oxiridagi qoldiq qiymati 4.864.099 ming so‘mni tashkil etib, yil davomida jamlangan amortizatsiya summasi 1.330.676 ming so‘mga oshgan.

2023-yil oxirida nomoddiy aktivlar qoldiq qiymati bilan balansda qayd etilgan:


- boshqaruv apparati – 4 860 949 ming so‘m;
- xalqaro tezkor pochta bo‘limi – 3150 ming so‘m.

Shuningdek nomoddiy aktivlarning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri, bu korxona tomonidan tayyorlandigan, o‘zining ichki resurslarini ishga solib yaratiladigan nomoddiy aktivlarini yaratish bilan bog‘liq jarayon mavjud bo‘lib, uning ham hisobini yuritishning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud.

Tadqiqot va ishlanmalar (R&D) xarajatlari kompaniyaning raqobatdosh ustunlikka ega bo‘lish va yangi mijozlarni jalb qilish uchun yangi mahsulotlarni

²³ “O‘zbekiston pochta”AJ buxgalteriya tizimidan olingan manbalar asosida tayyorlangan.

ishlab chiqish yoki mavjudlarini takomillashtirishga sarflagan xarajatlarini anglatadi. R&D kompaniyalarga o'z bizneslarini diversifikatsiya qilish, rivojlanayotgan texnologiyalar yordamida o'sish imkoniyatlarini o'rganish va uzoq muddatli rentabellik uchun takliflarini yangilash imkonini beradi (2-rasm).



2-rasm. Tadqiqot va ishlanma xarajatlarni amalga oshirishdan maqsadlar²⁴.

Bu yangi mahsulotlar va g'oyalarni bozorga chiqarilgunga qadar sinovdan o'tkazishni o'z ichiga oladi, bu mijozlarga faqat eng hayotiy va innovatsion takliflar etib borishini ta'minlaydi. Ilmiy-tadqiqot ishlari, shuningdek, jarayonlarni soddalashtirish va resurslarni optimallashtirishga olib kelishi mumkin, bu esa xarajatlarning sezilarli darajada pasayishiga va yuqori foyda marjasiga olib kelishi mumkin. Ko'pincha ichki ishlab chiqarilgan nomoddiy aktivlar cheklangan holatlarda tan olinadi va loyihalar hamma oltita mezon bajarilgunga qadar birmuncha vaqt davomida ishlab chiqilishi mumkin. Barcha mezonlar bajarilgandan keyingina xarajatlar kapitallashtirila boshlaydi. Ushbu nuqtadan oldin qilingan hech qanday xarajatlar va oldingi xarajatlar ichki ishlab chiqarilgan nomoddiy aktivga qo'shilishi mumkin emas (2-jadval).

2-jadval

Tadqiqot va ishlanma xarajatlari o'rtasidagi farq²⁵

Tadqiqot bosqichi	Ishlanma bosqichi	
Barcha haqiqiy va rejalashtirilgan tadqiqot faoliyati, shu jumladan baholash va bir nechta mumkin bo'lgan muqobil variantlardan mahsulot yoki jarayonlarni tanlash. Agar faoliyat uchun qaysi ibora mos ekanligi haqida noaniqlik mavjud bo'lsa, tadqiqot bosqichi qo'llaniladi.	Bu yerda tijorat ishlab chiqarish boshlanishidan oldin tadqiqot natijalarini qo'llash boshlanadi. U tadqiqot bosqichida aniqlangan muqobil variantlardan tanlangan prototiplarni, modellarni, tajriba zavodlarini loyihalash, sinovdan o'tkazish va qurishni, shuningdek har qanday yangi asboblarni, shablonlarni yoki quyma xarajatlarni o'z ichiga oladi.	
Barcha sarflar xarajat sifatida tan olinadi sababi, mazkur sarflar hech qanday nomoddiy aktivlar yaratish bilan bog'liq emas	38-sonli BHXS: Kapitalizatsiya qilish uchun oltita mezon bajarilishi kerak, aks holda xarajatlar yuzaga kelganda xarajatlarga kiritiladi. Oltita mezonga javob bermagani uchun dastlab xarajatlari hisoblangan	1) Nomoddiy aktivni texnik xususiyat talabiga muvofiqligi isbotlangan bo'lishi kerak.
		2) Rahbariyat mazkur nomoddiy aktivni foydalanish yoki sotish maqsadida ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.
		3) Korxona nomoddiy aktivni foydalanish yoki sotish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.
		4) Nomoddiy aktivni yaratish va bu orqali undan foydalanish yoki


²⁴ Muallif tomonidan tizimlashtirilgan.

²⁵ Muallif tomonidan tizimlashtirilgan.

	harajatlar keyinchalik kapitallashtirilmaydi.	sotish imkoniyati uchun yetarli resurslar mavjud bo'lishi kerak
		5) Kelajakda iqtisodiy foyda olish ehtimoli aniq belgilangan va asosli ravishda aniq, masalan, bozor mavjudligi yoki korxona uchun nomoddiy aktivning foydaliligi.
		6) Nomoddiy aktivni qiymatini aniq o'lchash imkoniyatini mavjud bo'lishi kerak
	Kapitalizatsiya qilish uchun nomaqbul xarajatlar	Biznesni boshlash xarajatlari, o'qitish, reklama va reklama, boshqa joyga ko'chirish, qayta tashkil etish xarajatlari yoki aktiv foydalanishga/sotishga tayyor bo'lgandan keyin har qanday xarajatlar. Ichki ishlab chiqarilgan brending yoki mijozlar ro'yxati ham kapitalizatsiyadan chiqarib tashlanadi, chunki ular boshqa biznes xarajatlaridan ajralib turmaydi.
	Oltita mezon bajarilgandan so'ng, mos keladigan to'g'ridan to'g'ri xarajatlar	To'g'ridan to'g'ri materiallar va to'g'ridan to'g'ri mehnat (ya'ni ish haqi va nafaqalar) kabi aniq aktivga bevosita bog'liq bo'lgan har qanday tashqi yoki ichki xarajatlar, shuningdek, muhandislik xarajatlari kabi boshqa to'g'ridan to'g'ri xarajatlar va har qanday bevosita bog'liq bo'lgan qo'shimcha xarajatlar.
		Nomoddiy aktiv maqsadli foydalanishga tayyor bo'lgach, keyingi har qanday ko'rpa-to'shaklar xarajatlarga kiritiladi va endi kapitallashtirilmaydi.

Tadqiqot va ishlanma xarajatlari bilan bog'liq muammo shundaki, tadqiqot bosqichida hali investitsiya moliyaviy foyda keltirishi mumkinligi haqida ma'lumotga ega bo'lishni imkoni yo'q. Tadqiqot va ishlanma xarajatlari biznes uchun kelajakda daromad keltirishi yoki keltirmasligi ham mumkin bo'ladi. Natijada, ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liq xarajatlarning ko'pchiligi sarflangan xarajatlar sifatida tasniflanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda bu axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida faoliyat olib boruvchi tashkilotlar hisob siyosatiga 0831 – “Yangi turdagi mahsulot yaratish bilan bog'liq ishlanma xarajatlar” va 9431 – “Yangi turdagi mahsulot yaratish bilan bog'liq tadqiqot xarajatlar” schyotlarini kiritish taklif etiladi va quyida mazkur schyotlar korrespondensiyasi keltirib o'tilgan.




3-rasm. 0831 – “Yangi turdagi mahsulot yaratish bilan bog‘liq ishlanma xarajatlar” schyoti korrespondensiyasi²⁶.

Mazkur schyotning korrespondensiyasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, unda asosan yangi turdagi mahsulotlarini yaratish bilan bog'liq bo'lgan ishlanma xarajatlarni yaratishda ishlatiladigan moddiy xarajatlar, mehnat haqi xarajatlari va boshqa turdagi xarajatlar xususan, ishlanma xarajatlari bilan bog'liq eskirish xarajatlar, kommunal xarajatlardan iborat bo'lib, bu xarajatlar yaratilayotgan yangi turdagi mahsulot yaratish bilan bog'liq ishlanma xarajatlarni to'plovchi schyotga dastlab olib borilib, u yerda to'planganidan so'ng nomoddiy aktiv schyotiga olib borilishi ko'rsatib o'tilgan.

Quyida keltirilgan rasmda 9431 – “Yangi turdagi mahsulot yaratish bilan bog'liq tadqiqot xarajatlar” nomli schyotining boshqa schyotlar bilan korrespondensiyasi keltirib o'tilgan.

²⁶ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



4-rasm. 9431 – “Yangi turdagi mahsulot yaratish bilan bog‘liq tadqiqot xarajatlar” schyoti korrespondensiyasi²⁷.

Mazkur schyotning korrespondensiyasiga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, unda asosan yangi turdagi mahsulotlarni yaratish bilan bog‘liq bo‘lgan tadqiqot xarajatlarini yaratishda ishlatiladigan moddiy xarajatlar, mehnat haqi xarajatlari va boshqa turdagi xarajatlar xususan, ishlanma xarajatlari bilan bog‘liq eskirish xarajatlar, kommunal xarajatlaridan iborat bo‘lib, bu xarajatlar yaratilayotgan yangi turdagi mahsulot yaratish bilan bog‘liq ishlanma xarajatlarni to‘plovchi schyotga dastlab olib borilib, u yerda to‘planganidan so‘ng nomoddiy aktiv schyotiga olib borilishi ko‘rsatib o‘tilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda umumiy xulosa qiladigan bo‘lsak, nomoddiy aktivlarni hisobini tashkil etish va yuritishning o‘ziga xos xususiyatlardan iborat bo‘lib, ayniqsa o‘zi tomonidan yaratiladigan nomoddiy aktivlarni yaratishda tadqiqot va ishlanma xarajatlari hisobini to‘g‘ri tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Yangi tadqiqot-ishlanma xarajatlari natijasida yaratilgan tadqiqot-ishlanma natijalarini qanchalik foyda keltirishini mazkur xarajatlarni amalga oshirishdan oldin to‘g‘ri hisob-kitob qilish, boshlangan ishni qanchalik oxiriga yetkaza olish darajasini to‘g‘ri baholash lozim bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida xarajatlarni ortiqcha sarf etilishini, behuda samarasiz sarflashini oldini olishga xizmat qiladi.

Quyida tadqiqot xarajatlarini byudjetlashtirish kartochkasining namunaviy shakli keltirib o‘tilgan (3-jadval).

²⁷ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Tadqiqot xarajatlarini byudjetlashtirish kartochkasi

Ilmiy-tadqiqot o'tkazuvchi

yuridik shaxs:

Ilmiy-tadqiqot obyekti:

Ilmiy-tadqiqot amalga oshirish

sanasi:

Tadqiqotni moliyalashtirish manbasi tarkibi:	Byudjetlashtirish summasi	Haqiqiy summasi
1.		
2.		
...		
Jami		
Tadqiqot xarajatlari tarkibi:	Byudjetlashtirilgan summasi	Haqiqiy qilingan xarajatlar summasi
1.		
2.		
...		
Jami		

